

## **FRIDRIX SHILLERNING “QAROQCHILAR” ASARI TAHLILI**

***Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li***

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati kafedrasи 4-kurs talabasi*

*oqilovahrорjon@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Mazkur magola tanqli adabiyot vakili va mutafakkiri Fridrix Shillerning “Qaroqchilar” asari va uning tahliliga qaratilgan.*

**Kirish so‘z.** Fridrix Shiller, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik

Tanqli nemis adibi bebaho asarlari bilan nom qozongan Fridrix Shillerning ijodi bilan tanishar ekanmiz, avvalo, uning ijodida emotSIONALLIKKA duch kelishimiz mumkin. Tomchi ummondan olingan holda kichik bo‘lsada ummonning bir qismi bo‘lib qolaveradi. ZOTAN, Shiller ijodidagi bu asar hajman kichik bo‘lsada, u go‘zal ijodlarning bir qismidir! Bu bir tomondan yozuvchining nozik did va tabiat sohibi ekanligidan dalolat beradi, boshqa tomondan esa mutolaa qiluvchi insonga estetik zavq beradi. Zero, chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar. Muallif tomonidan qo‘llanilgan so‘zlar ham inson e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Masalan, la’natlamoq, qittay, tokay kabi so‘zlarda badiiy uslub yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari yozuvchining mahorati quyidagilarda ham namoyon bo‘ladi:

*Birlamchi*, yozuvchi asarni boshlar ekan uni boshlang‘ich nuqtasini yashirin qoldiradi. O‘quvchi esa bu vaziyatda yanada diqqatliroq bo‘lishga intilgani holda, asl kalavaning uchini asar davomida oydinlashtirib oladi.

*Ikkilamchi*, asar personajlarining xulq-atvori o‘ziga xoslik kasb etgan holda, asar yakuniga qadar o‘z salmog‘ini deyarli yo‘qotmaydi.

*Uchinchidan*, adib jadallikka asoslangan holda syujetlarni boyitib boradi, ya’ni asar qahramonlarida hatto epizodik ishtirokchilarida ham ikkilanish qariyb ko‘zga

tashlanmaydi. Bu esa yozuvchi asar yozish oldidan qat’iy mavqif (pozitsiya)ni belgilab olganligidan dalolat beradi.

*To ‘rtinchidan*, yozuvchi sahnalarning umumiyligi uyg‘unligini saqlasada, biroq, juz’iy holatlarda har bir jarayonda imkon qadar o‘ziga hoslikni ko‘rsatishga harakat qiladi. O‘quvchida bu holat keyingi qismga nisbatan yangi qiziqish uyg‘otadi.

*Beshinchidan*, asardagi holatlar insonda hissiy tug‘ularni jumbushga keltirsa ham, uning hayotiy ekanligi insonni qisman bosiqlikka chorlaydi.

### **Xulosa**

Asar yuzasidan biz bir qancha xulosalar olishimiz mumkin. Bular:

*Birinchidan*, biz manbalarni tadqiq qilish, shaxsan o‘zimiz uni o‘rganishimiz zarurligi g‘oyat muhim ekanligini;

*Ikkinchidan*, ma’lumot beruvchi kimligiga emas, ma’lumotning qandayligiga e’tibor qaratish lozimligini;

*Uchinchidan*, hayot bergen zarbalar oldida o‘z mavqifimizni o‘zgartirmaslik. Karlning bu harakati oqibat zavol ketgan umr belgisi bo‘ldi. U shavqatsizlik ko‘rgani uchun shavqatsiz odamga aylanmoqchi bo‘ldi. Aslida, jinoyat jinoyat bilan oqlanmaydi;

*To ‘rtinchidan*, atrofimizdagilarni saralab yig‘ishimiz kerakligi va ularga ishonch bildirar ekanmiz chuqur mulohaza qilib ko‘rish zarurligi. Biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi biz xulqimizda atrofimizdagilarning ta’siri, albatta, seziladi;

*Beshinchidan*, insonning muqaddas deb biladigan tushunchalari har doim bo‘lishi kerak. Inson bu qarashlarni sog‘lom aql bilan o‘ylab ko‘rib so‘ng tanlamog‘i lozim;

*Oltinchidan*, nafsiga bo‘ysungan odam, katta ehtimol bilan, zalolatga yuz tutadi. Yo sen nafsingni jannatga eltasan yo u seni azobga mustahiq etadi!

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev. Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo Etamiz. T.,“O‘ZBEKISTON“, 2016.
2. Fridrix Shiller. Qaroqchilar. Asqad Muxtor tarjimasi. T., „G‘afur G‘ulom“, 1985.
3. Gyote. Faust. Erkin Vohidov tarjimasi. T., „G‘afur G‘ulom“
4. Lafasov. U. P, Akbarova. M. B. Nutq madaniyati. T., 2018
5. Axloqi kabir. Arastu. Tarjimonlar Zohir A’lam va Urfon Otajon / Mas’ul muharrirlar Abduhafiz Jalolov, Najmuddin Komilov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016.  
– 384 b.\